BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE IMAGE OF THE "WOLF" IN ARTISTIC WORKS

Dinora Shukurova
Second-year master's student of the Faculty of Philology, SamSU

Annotatsiya. Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasi va Ernest Seton Tompsonning “Lobo” hikoyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala asarda ham bo‘ri obrazi markaziy o‘rinni egallab, inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. “Ovul oralagan bo‘ri” qissasida bo‘rining ovulga tushib kelishi va odamlar bilan to‘qnashuvi orqali insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati yoritilgan bo‘lsa, “Lobo” asarida bo‘ri o‘zining strategik fikrlashi, rahbarlik qobiliyati va sadoqati bilan tasvirlanadi. Maqolada ushbu ikki asarning badiiyati, voqealar rivoji va bo‘ri obrazi orqali ifodalangan g‘oyalari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi.
Kalit so’zlar: Bo‘ri obrazi, qiyosiy tahlil, badiiy asar, tabiat va inson, sadoqat, rahbarlik.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the novella “Ovul Oralagan Bo‘ri” by Normurod Norqobilov and the short story “Lobo” by Ernest Thompson Seton. In both works, the image of the wolf occupies a central place and reflects the complex and often conflicting relationship between humans and nature. In “Ovul Oralagan Bo‘ri,” the wolf’s approach to the village and its confrontation with people reveal human attitudes toward nature, including fear and aggression. In “Lobo,” the wolf is depicted as a symbol of intelligence, leadership, and loyalty, with particular emphasis on its strategic thinking and independent character. The article comparatively examines the plot structure, system of characters, and the ideological and artistic features expressed through the image of the wolf.

Keywords: wolf image, comparative analysis, literary work, human–nature relationship, loyalty, leadership.

Qadimgi miflar, afsonalar va xalq og‘zaki ijodida shakllangan ramziy tasavvurlar yozma adabiyotda yangi badiiy talqinlar bilan boyidi. Ayniqsa, hayvon obrazlari orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy mezonlarni ifodalash an’anasi keng rivojlandi. Shu jarayonda bo‘ri obrazi ham o‘zining qadimiy mifologik ildizlariga tayangan holda turli ma’nolarni anglatuvchi murakkab ramzga aylandi. Bu jihat Maugli haqidagi qissalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Rudyard Kipling tomonidan yaratilgan ushbu asarda bo‘rilar oddiy yirtqich hayvon sifatida emas, balki aniq ijtimoiy tizimga ega jamoa sifatida tasvirlanadi. Ular “bo‘rilar to‘dasi” shaklida yashab, qat’iy qonun-qoidalarga bo‘ysunadi. Bu holat qadimgi totemistik tasavvurlar bilan uyg‘un bo‘lib, bo‘rining jamoaviylik va tartib ramzi sifatidagi qadimiy ma’nosini eslatadi.[1] Asarda bo‘ri obrazlari bir necha muhim ramziy qatlamlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, ona bo‘ri — Raksha obrazi alohida ahamiyatga ega. U Maugliyni o‘z bolasidek asrab, himoya qiladi. Bu motiv qadimgi turkiy va boshqa mifologiyalardagi “bo‘ri — ona va homiy” g‘oyasi bilan bevosita bog‘liq. Yuqorida tilga olingan Ashina afsonasidagi kabi, bu yerda ham bo‘ri inson bolasining hayotini saqlab qoluvchi va uni tarbiyalovchi kuch sifatida talqin etiladi. Ikkinchi muhim jihat — bo‘rilar jamoasining ichki tartibi va “o‘rmon qonuni”ga amal qilishi. Bu orqali muallif bo‘rilarni tartibsiz, vahshiy mavjudot emas, balki o‘ziga xos axloqiy tizimga ega jamiyat sifatida ko‘rsatadi. Bo‘rilar orasidagi yetakchi — Akela obrazi esa donishmandlik, adolat va mas’uliyat timsolidir. U jamoani

[1] Mirzoxidova Laylo. XI-XII asrlar 476urkey adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. F.f.d diss. Samarqand 2018

boshqaruvchi, qarorlar qabul qiluvchi sifatida qadimgi jamiyatlardagi oqsoqol yoki sardor obrazini eslatadi. Shuningdek, bo‘rilar Maugli uchun nafaqat jismoniy himoya, balki ijtimoiylashuv maktabi vazifasini bajaradi. U aynan bo‘rilar orasida yashab, “o‘rmon qonuni”ni o‘rganadi, ya’ni inson sifatida shakllanish jarayonidan o‘tadi. Bu esa bo‘ri obrazining yana bir ramziy ma’nosini — tarbiyachi va yo‘l ko‘rsatuvchi kuch ekanini ko‘rsatadi. Bu jihat ham “Ko‘k bo‘ri” haqidagi qadimgi rivoyatlar bilan ma’naviy jihatdan uyg‘unlashadi.[2] Biroq asarda bo‘ri obrazi faqat ijobiy talqinda emas. Ayrim epizodlarda yosh bo‘rilar yoki to‘da ichidagi qarama-qarshiliklar orqali kuch, omon qolish uchun kurash, yetakchilik uchun raqobat kabi tabiiy instinktlar ham aks ettiriladi. Bu esa bo‘rining ikki tomonlama — ham ijobiy (himoyachi, jamoaviylik timsoli), ham tabiiy yovvoyi kuch sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Demakki, Maugli haqidagi qissalarda bo‘ri obrazi qadimgi mifologik va totemistik qarashlarning badiiy davomidir. U nafaqat yirtqich hayvon, balki ijtimoiy tartib, sadoqat, himoya va tarbiya ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu orqali muallif bo‘ri obraziga chuqur falsafiy va ma’naviy mazmun yuklaydi.

E’tiborli jihati shundaki, ramz va majoz ikki xil hodisa bo‘lsada, N. Shukurov, N. Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudovlarning “Adabiyotshunoslikka kirish” darslik qo‘llanmasida ramz majozning turlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi: “Simvol (ramz) majoz turlaridan biri bo‘lib, biror hayotiy voqea yoki tushunchani ifodalash uchun shartli ravishda qo‘llanilgan so‘z va so‘z birikmalaridir”[3] – deya ta’rif beradi. Shuningdek XI-XII asrlar majoziy tasvir badiiyatini o‘rgandan Laylo Mirzoxidova o‘z tadqiqotida ramz va majozni bir xil hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikrlariga ko‘ra simvol, ramz, allegoriya, metafora, metonimiya, istiora, va hokazo ko‘chimlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir-biriga o‘xshash yoki bir-biridan biroz farqli ravishda ta’riflanmasin, mohiyat, vazifa nuqtai nazaridan bir xil, ya’ni o‘z ma’nosidan boshqa ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z birikmalidir.[4] Demak, badiiy adabiyotda so‘z va so‘z birikmalarini, narsa va hodisalarni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chirib ishlatish majoz deb yuritiladi.

Bo‘ri – tabiatning eng sodiq va zukko jonivorlaridan biri bo‘lib, u faqat yirtqich emas, balki oilaparvarlik, jamoaviylik va o‘zaro sadoqat ramzi hamdir. Tarix va adabiyotda bo‘ri obraziga ko‘plab ma’nolar yuklangan. Bo‘ri timsoli orqali ijodkorlar insoniyatning murakkab ichki dunyosini, ijtimoiy hayotidagi muammolarni ham ifodalab kelganlar. Shu nuqtai nazardan, Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasi va Ernest Seton Tompsonning “Lobo” hikoyasi bo‘ri obrazini o‘ziga xos qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasida bo‘ri tabiatining nozik qirralari yoritilgan.[5] Asarda voqealar kichik ovulda bo‘lib o‘tadi, unda odamlarning bo‘rilarga nisbatan munosabati aks ettiriladi. Bo‘rining ichki dunyosi, insonlar bilan o‘xshash, hattoki ularda kam topiladigan sadoqat, vafo, mehr-muhabbat, rahm-shavqat tuyg‘ulari Cho‘ngkalla obrazi orqali tasvirlangan. Qissaning bosh qahramoni bo‘lgan bo‘ri ov va qishloq hayotidagi chalkashliklarni o‘z hayoti orqali ifodalaydi. Masalan, bo‘rining ovulga tushib kelishi va odamlar bilan to‘qnashuvi insonlarning o‘z manfaatini tabiatdan ustun qo‘yishini ko‘rsatadi. Salom mergan – asardagi markaziy inson qahramonlaridan biri bo‘lib, u o‘z hayotini ovchilik va tabiat bilan chambarchas bog‘lagan. Mergan tabiatni yaxshi tushunadi va unga hurmat bilan qaraydi, ammo uning bo‘rilarga munosabati ijobiy emas. Bu uning odam sifatidagi manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, chorva va

[2] B. Sayfullayev. Madaniyat va san’at atamalari qomusiy lug‘ati. –T.:2014. –B.313
[3] G.d’Alviella. La migration des symbolis. – California.: The University of California, 2007, 343 p.
[4] Mirzoxidova Laylo. XI-XII asrlar 476urkey adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. F.f.d diss. Samarqand 2018
[5] Norqobilov N. “Ovul oralagan bo‘ri”. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 1998.

bo‘rilar o‘rtasidagi kurashda insonning tabiatni o‘z manfaatlariga moslashtirishga intilishini ifodalaydi.

Bo‘ri asarda faqat yirtqich sifatida emas, balki tabiatning ajralmas qismi va sadoqatli jonivor sifatida tasvirlangan. Bo‘rining ovulga yaqinlashuvi inson va tabiat o‘rtasidagi chegara buzilganini bildiradi. U o‘z jufti, Oqyol uchun hayotini xavf ostiga qo‘yadi, bu uning jasorati va fidoyiligini ochib beradi. Salom mergan bo‘rini xavf deb biladi va uni yo‘q qilishga intiladi, ammo asar davomida u bo‘rining o‘ziga xos hayot tarzini tushunishga yaqinlashadi. Bu insonning tabiatni to‘liq anglashga bo‘lgan qobiliyatini aks ettiradi. Bo‘rining ovulga hujum qilishi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilganini ko‘rsatadi.[6] Salom mergan va bo‘ri obrazlari bir-biriga hissiy jihatdan yaqin. Cho‘ngkalla oilasini himoya qilishda jasorat ko‘rsatgani singari, Salom mergan ham o‘z oilasini ta’minlash uchun tabiat bilan kurashadi. Bu ularning hayotiy maqsadlari va qarashlaridagi o‘xshashlikni aks ettiradi. Asar oxirida mergan bo‘rining o‘z jufti uchun ko‘rsatgan sadoqatini anglab yetadi. Bu esa inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni qayta tiklash kerakligini ifodalaydi.

Ernest Seton Tompsonning “Lobo” asari esa Kurrumpo vodiysida yashagan ulkan bo‘ri – Loboning fojeaviy hayotini tasvirlaydi. [7]Uning inson tomonidan o‘lja sifatida ko‘rilishi va shonli hayoti orqali muallif bo‘rining qahramonligini, uning jasorati va sadoqatini ulug‘laydi. Loboning sevgilisi, Blanka, tuzoqqa tushib halok bo‘lganda, Loboning g‘am-g‘ussa bilan inson tuzog‘iga tushishi hayotiy dramatizmni kuchaytiradi.

Ernest Seton Tompsonning “Lobo”asaridagi bosh qahramon – Lobo, faqatgina yirtqich bo‘ri sifatida emas, balki to‘daning donishmand va kuchli boshqaruvchisi sifatida tasvirlangan. Uning liderlik qobiliyati asarning asosiy voqealari orqali ochib beriladi va bu sifat Lobo obrazini yanada ko‘tarinki qiladi. Loboning to‘dasi ov qilishda har doim muvaffaqiyatli bo‘ladi, chunki u o‘z aql-zakovati bilan dushmanlarini aldab, tuzoqlardan qochadi. U o‘z to‘dasiga ov qilish rejasini tuzishda o‘ta puxta yondashadi. Masalan, fermerlarning qo‘ylari yoki boshqa hayvonlarini ovlashda o‘z to‘dasini xavf-xatardan saqlash uchun murakkab strategiyalar ishlab chiqadi. Dori sepilgan go‘shtlarni yemay ustalik bilan ajratib ketadi. Ichiga zahar qo‘shilgan pishloqlarni yig‘ib, tezagiga ko‘mib ketadi. Bu sifatlar Loboni odatiy yirtqichdan ko‘ra ulug‘vor rahbar sifatida ko‘rsatadi. Uning hattoki ovchilardan ham aqlliroq ekanligini ko‘ramiz.

Lobo o‘z to‘dasining xavfsizligi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ayniqsa, uning sevgilisi Blanka bilan bo‘lgan munosabatida bu sifat yanada ko‘zga tashlanadi. Blanka ovchilar tomonidan qo‘lga tushganida, Lobo uni qutqarishga intiladi. Bu nafaqat uning o‘z to‘dasi a’zolariga sodiqligini, balki lider sifatida ularga bo‘lgan mas’uliyatini ham ko‘rsatadi. Loboning liderlik qobiliyati uning jasorati va qat’iyatida ham namoyon bo‘ladi. U ovchilar tomonidan tuzilgan tuzoqlarga qarshi shiddat bilan kurashadi va to‘dasi uchun oxirigacha o‘z hayotini xavfga qo‘yadi. Bu jihatlar uning nafaqat kuchli boshqaruvchi, balki o‘z to‘dasiga sodiq va jasur ekanligini ham ko‘rsatadi. Lobo ovchilarni hayratga solgan va ularni chalg‘itgan ko‘plab taktikalardan foydalangan. Masalan, uning tuzoqlardan qochish qobiliyati yoki ovchilarning chorva hayvonlariga hujum qilish vaqtini va joyini oldindan rejalashi dushmanlari ustidan nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Loboning boshqaruvchilik xislatlari asarda inson va hayvonlarning hayotiy qadriyatlari o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ochib beradi. Muallif Lobo obrazini faqat tabiatning bir qismi sifatida emas, balki liderlik fazilatlari va jamoa boshqarishdagi muloqot qobiliyatlari bilan ajralib turadigan qahramon

[6] Qosimov M. “Adabiyotda yovvoyi tabiat”. “O‘zbek adabiyoti”, 2020, №2, 34-36-betlar.
[7] Seton Tompson E. “Lobo”. New York: Scribner's Sons, 1898

sifatida yaratgan. Bu orqali Tompson o‘quvchini bo‘rilar dunyosidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarni tushunishga undaydi.

Ikkala asarda ham bo‘ri obraziga turli xil yondashuvlar kuzatiladi. Norqobilov bo‘rini tabiat va odamlar o‘rtasidagi ko‘prik sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, Tompson bo‘rini kuchli shaxs sifatida tasvirlagan. Norqobilovning qissasida odamlar o‘z manfaati uchun tabiatni vayron qilayotganligi, bo‘rilarning esa o‘z hayotini saqlab qolish uchun kurashayotgani ta’kidlangan. Tompson asarida esa bo‘rining sodiqligi va qahramonligi eng yuqori darajada ulug‘langan. Ikki asardagi bo‘ri ham arloni ya’ni to‘daboshi hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, ikkala qahramon ham o‘zining kattaligi, kuchliligi bilan boshqa bo‘rilardan ajralib turadi. Bo‘rilar o‘z juftiga sodiq, oilaparvar bo‘ladi. Hattoki jon berayotganda ham ularni himoya qilishga harakat qiladi. Asarlarda ham yuqoridagi so‘zimizning isbotini ko‘rishimiz mumkin. Tutqich bermas Lobo juftini qutqaraman deb o‘zi ham tuzoqqa tushadi va halok bo‘ladi. Uni tuzoqqa tushirgan ovchi bo‘rining vafodorligiga qoyil qoladi va Lobo bilan Blankani birga ko‘madi. Cho‘ngkalla ham juftini qidirib ovulga kelib odamlar tomonidan otib o‘ldiriladi. Ammo Salom mergan bo‘riga tan beradi. Uning murdasiga hurmat ko‘rsatib, terisini shilmay yer kovlab ko‘madi. Mergan bo‘riga, uning sadoqatiga tan beradi. Asarlardagi urg‘ochi bo‘rilarning nomlari (Blanka ispan tilida oppoq yoki oq ma’nolarini anglatadi) ham xarakter xususiyatlari ham bir-biriga o‘xshash. Xarakteriga ko‘ra ikki urg‘ochi bo‘ri ham qaysar, ammo sodda, boshqa bo‘rilar hurkiydigan juftlariga bemalol jahl, araz qila olish darajasida tasvirlangan. Aynan ana shu fe’li ularni tuzoqqa yetaklagan edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki bo‘ri adabiyotimizda ko‘p yillar davomida qo‘llanib kelinadigan obraz hisoblanib, u – adabiyotda insoniyatning ichki kechinmalarini aks ettirish uchun samarali timsollardan biri hisoblanadi. Normurod Norqobilov va Ernest Seton Tompson asarlaridagi bo‘ri obrazlari mualliflarning tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat haqidagi qarashlarini ochib beradi. Ikkala asar ham tabiat va insonning bir-biriga ehtiyojini va ularning bir-biriga bo‘lgan mas’uliyatini o‘quvchiga eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norqobilov N. “Ovul oralagan bo‘ri”. – T.: Yozuvchilar uyushmasi, 1998.
2. Seton Tompson E. “Lobo”. New York: Scribner's Sons, 1898.
3. Matmusayev O. “Bo‘ri obrazi va uning adabiyotdagi o‘rni”. “Adabiyotshunoslik jurnali”, 2015, №3, 45-48-betlar.
4. Qosimov M. “Adabiyotda yovvoyi tabiat”. “O‘zbek adabiyoti”, 2020, №2, 34-36-betlar.
5. Mirzoxiva Laylo. XI-XII asrlar 476urkey adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. F.f.d diss. Samarqand 2018
6. B. Sayfullayev. Madaniyat va san’at atamalari qomusiy lug‘ati. –T.:2014. –B.313
7.G.d’Alviella. La migration des symbolis. – California.: The University of California, 2007, 343 p.